

## ADABIYOT – MA’NAVIYAT FARZANDI

**Ibragimov Xayrulla Hamdamovich, f.f.f.d. (PhD)**

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

**Turopova Muqaddas**

Jizzax viloyati G‘allaorol tumani 47-maktab o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyot va ma’naviyatning o’zaro bir-biri bilan aloqasi, biri ikkinchisini taqozo etishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil markaziga qo‘yilgan.

**Tayanch iboralar:** Adabiyot, ma’naviyat, milliylik, axloq, ma’naviy axloq, insoniylik, yuksaklik, ijodkor, asar, ijod, badiy ijod, kamolot.

Adabiyot va axloq orasidagi bog‘liqlik, robita haqida fikr yuritganda, muhim bir holatni qayd etmoq lozim. Axloq adabiyot uchun havo kabitdir, havoning borligi sezilmaydi, lekin yo‘q bo‘lgan yoki kamaygan zahoti uning hayotiy zaruriyati bilinadi. Axloq chinakam badiiy asarning qon-qoniga singib ketgan bo‘lib, uni ajratib ko‘rsatish, ya’ni bu axloqqa tegishli, bunisi tegishli emas, deya tasniflash mumkin emas. Adabiyot butun turish-turmushi bilan yuksak insoniy axloqqa suyanadi va oxir-oqibatda o‘z asarlari vositasida uni targ‘ib qiladi.

Bir narsa aniqki, har qanday yirik ijodkor o‘z asarlarida ma’naviy-axloqiy muammolarga daxl qilmasligi mumkin emas. Buning ustiga o‘scha adib ijodi sobiq sovet tuzumiga xos bo‘lgan mafkuraviy siquv sharoitida kechsa-da, u o‘z ijodi bilan ona xalqini ma’naviy kamolot sari muttasil chorlagan bo‘lsa, milliy ma’naviyatga xizmat qilgan bo‘lsa.

Shunday ijodkorlarimizdan biri xalqimizning ardoqli adibi Pirimkul Qodirovdir.

Yozuvchining o‘tgan asrning 60 yillarida yaratilgan “Qadrim” qissasi muayyan ma’naviy-axloqiy muammolarning badiiy talqini jihatidan diqqatga sazovor asar. Aslida, shunday muammolar o‘zining badiiy talqinini topgan taqdirdagina, chinakam badiiy asar dunyoga kelgan hisoblanadi. Zero, ko‘tarilgan muammolar g‘ij-g‘ij, lekin badiiy asar darajasiga chiqmagan bitiklar

ko‘plab topilishi sir emas. «Qadrim» esa hozir, istiqlol davrida ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan asarlar sirasiga kiradi.

Qissa qahramoni Iskandar dastlab o‘zi uchun otasi chizib bergan mo‘min-qobillikni tanlagan bo‘lsa, – «Falonchining o‘g‘li juda qoyil bo‘libdi-da, kuni bilan tinmaydi, gap qaytarishni bilmaydi, o‘zidan katta nima ish buyursa qiladi deyaversa, mening ham shunday bo‘lgim kelaveradi», – keyinchalik hayot sinovlari uning dunyoqarashiga jiddiy o‘zgartirish kiritadi. Ta’kidlash lozimki, Iskandar o‘z insoniy qadr-qimmatini anglash jarayonida, sevgi-muhabbat yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bu muvaffaqiyatli topilgan syujet unsuri bo‘lib, o‘smir yigitning hayotida sevgidan ortiq yana qanday ta’sirchan omil topish mumkin. Kasalmand otasining ixtiyor, raisning qistovi bilan oshpazlik kursini bitirgan Iskandar ko‘zga ko‘rinmas bo‘lib, tinchgina kasbini, «yog‘liq ish»ni qilib yuraverishi mumkin edi. Lekin unda biz qahramon xarakterining shakllanish jarayonini ko‘rmasdik, qadr masalasi muallaq qolgan, unga o‘rin bo‘lmagan bo‘lur edi. Lekin yozuvchi Iskandarga shunday taqdir yo‘li topib beradiki, unda u o‘zini to‘liqroq namoyon etadi, dunyoga bekorga kelmaganini isbot qilib, bu bilan yosh kitobxonga, hayotga endi qadam qo‘yayotgan yoshlarga o‘rnak bo‘ladi.

Sevgi - muhabbat Iskandar xarakteri tadrijida yuksaklikka, komillikka undovchi turtki vazifasini o‘taydi. Unga ko‘ngil qo‘ygan shaddod sinfdosh qiz Zulayhoning dashnom va qistovlari bilan hayotning katta qozoniga tushadi, ya’ni gaz qidiruv otryadiga ishga kiradi. Asarni sinchiklab o‘qir ekansiz, Iskandarning har bir xatti-harakati sevgi tomonidan kuzatib turilgandek tuyuladi. Sevgi Iskandar uchun Zulayho ismli qiz timsolida bo‘lishi bilan birga, uning uchun ma’naviy qudrat manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham, qat’iyat bilan aytish mumkinki, badiiy asarda, xususan, «Qadrim» qissasida tasvirlangan sevgi nafaqat ma’naviy-ruhiy, balki etik hodisa hamdir.

Qissada sevgining hayotbaxsh kuchi sodda, mo‘min-qobil yigitning o‘zligini anglash yo‘lidagi xatti-harakatlari tasviri orqali ishonarli ko‘rsatilgan. Bunda qahramonning ruhoni yuvvati uning turli murakkab holatlarda yaxshilik, yuksaklikka tomon o‘sib borayotganligida namoyon bo‘ladi.

«Qadrim» qissasida yomonlik yetakchilik qilmaydi. Hatto u nisbatan ojiz qilib tasvirlangandek taassurot qoladi. Yangi ishga kelgan tajribasiz Iskandarni masxara qilib, uni yerga urishga chog‘langan maqtanchoq Ashurning tezda misi

chiqadi, qo‘rroq va past bir odam ekani ayon bo‘ladi. Zulayhoning sevgisiga da’vogar bo‘lgan Davron esa o‘zining g‘alamisligi, zo‘ravonligi tufayli Zulayhodan ma’naviy mag‘lubiyatga uchrab, oxir-oqibat qizning mardligiga tan beradi. Asardagi konfliktning bir qadar jo‘n hal qilinishida qissa yaratilgan paytda sho‘ro adabiyotida ancha mavqega ega bo‘lgan mash’um «konfliktsizlik nazariyasi»ning ta’siri bo‘lishi mumkin. Lekin shu holatda ham qissadagi konflikt rivoji kitobxonda ishonchsizlik tug‘dirmaydi. Asar oxirigacha qiziqish bilan o‘qiladi.

Bizningcha, qissada ikki kulminatsion nuqta bor. Ularning har ikkalasida ham muayyan ma’naviy-axloqiy muammo yetakchilik qiladi. Birinchi kulminatsion nuqta Zulayho bilan Davron o‘rtasidagi to‘qnashuvda, aniqrog‘i, qiz sevgisiga erisha olmagan yigitning Zulayho nomusiga tajovuz qilishi sahnasida yuz ko‘rsatadi. Bu sahna ancha jonli, ishonarli chiqqan:

«U ikki sakrashda Zulayhoga yetadi:

- Endi qochib qutila olmaysan. Dodla, baqir, hech kim eshitmaydi!
- Bekor aytibsan! - deydi Zulayho. - Sen meni yengsang ham mardlik bilan yengar eding! Nomardlik bilan yengolmaysan!»<sup>1</sup>(165-bet).

Aynan shunday bo‘lib chiqadi. «Bir paytlar pichoqlashib qamalib chiqqan Davron o‘z chirkin maqsadiga yetolmagach, qizga pichoq urmoqchi bo‘lib tashlanganda, Zulayho toshni unga otadi. Tosh Davronning chakkasiga qarsillab uriladi. Uning pichoq o‘qtalgan qo‘li jonsizlanib pastga tushadi. So‘ng o‘zi ham gandiraklab yiqiladi» (165-bet). Bu voqeaga keyinchalik Davronning o‘zi shunday baho beradi:

« - Qiz bolaning bunchalik mard bo‘lishini men endi ko‘rishim. Menday chapanini yengib, durrasini boshimga o‘ratib ketib, yana hech narsa ko‘rmaganday bo‘lib yuribdi-ya!» (194-bet). Zulayho qoni qaynagan, navbatdagi jinoyat yoqasida turgan Davronni shunday mardlik bilan yengadi. Uni olijanoblikka undab, to‘g‘ri yo‘lga qaytaradi.

Ikkinci kulminatsion nuqta esa bevosita bosh qahramon, ya’ni Iskandar bilan bog‘liq. Bu haqda yozuvchining qiziq bir iqrori bor. U tanqidchi U.Normatov bilan suhbatida shunday deydi: «Masalan, «Qadrim»dagi

<sup>1</sup> Pirimqul Qodirov. Erk.Meros.Qadrim. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975. (Bundan so‘ng ushbu nashrdan olingan ko‘chirmalarning sahifasini ko‘rsatuvchi raqamlar qavs ichida berib boriladi).

Iskandar ilk rejaga binoan metallurgiya zavodida ishlashi kerak edi. Men bu yigitchaning taqdiri orqali aytmoqchi bo‘lgan g‘oyani metallurgiya zavodida ko‘p yil ishchi bo‘lib ishlagan akamning hayoti orqali topgan edim. Lekin xuddi shu g‘oyani yaxshi va yorqin bir voqeа orqali ko‘rsatish imkoniyati Qarshi dashtida Muborak degan joyda boshqa sohaning ishchilari hayotida uchrab qoldi. Shu sababli Iskandar metallurg emas, olovkor bo‘lib ketdi»<sup>2</sup>.

Muallif ta’biri bilan aytganda, hayotdan olingan «yaxlit va yorqin bir voqeа» asar markaziga chiqariladi va asarning jozibali nuqtasiga aylantiriladi.

Gazchilar alanga olib yonayotgan gaz oqimini harbiy qismdan chaqirilgan tank otgan o‘qlar yordamida o‘chirishadi. Shu o‘rinda qissaga murojaat qilamiz: «Endi zadvijka yorilib ketdimi, ishqilib, avvalgidan ham yomonroq yondosh alanga paydo bo‘ldi va yer bag‘irlab yona boshladi. Mutaxassislar ilojsizlanib qolishdi.

Yuqorida aytganimizdek, o‘z qadrini bilmagan odam o‘zgalar qadrini ham bilmaydi. Qandaydir favqulodda ishga qodir ekanini anglash, amalda bunga ishonishgina Iskandarga ma’naviy qudrat baxsh etadi. Ushbu mag‘rurona, lekin samimiy so‘zleri buning go‘zal isboti bo‘la oladi:

«Endi o‘qning o‘rniga odam bormoqda. Bu odam - menman» (189-bet).

Iskandar ko‘rsatgan jasorat qissada bat afsil, butun ikir-chikirlari bilan tasvirlanadi. Bular badiiy aniqlik jihatidan muhim. Lekin bizni qiziqtiradigan masala ushbu jarayondagi qahramonning ruhiy holati va uning ortidan kelib chiqadigan, «ko‘rinib» turadigan ma’naviyat, ma’naviy qadriyatdir.

Iskandar alanga olib turgan gaz qa’rida xavfli topshiriqni ado etar ekan, bu ko‘pchilikning hayajonli kuzatuvi, ostida sodir bo‘ladi. Chunki bu ishni faqat bir odam uddalashi mumkin bo‘lib, qolganlar kuzatib turishga majbur edilar, xolos. Iskandar topshiriqni a’lo darajada bajaradi. Chunki kuzatayotganlar orasida va Iskandarning qalbida kuch-quvvat manbai – Iskandarning sevgisi bor edi. Yozuvchi o‘sha mas’uliyatli onlarda Iskandar qalb qiyofasini shunday chizadi:

Badiiy asar qaysi davr, qanday ijtimoiy-adabiy sharoitda yaratilganligidan qat’i nazar, muallif nigohi sof va to‘g‘ri bo‘lsa, u o‘zining botiniy fikrlarini ayta oladi hamda umuminsoniy ma’naviy-axloqiy muammoni badiiy yo‘sinda hal eta

<sup>1</sup>Норматов У. Етуклик. -Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.- Б.317.

oladi. Aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, bundan salkam yarim asr ilgari sobiq sho'ro tuzumi davrida yaratilgan «Qadrim» qissasi XXI asr avvalida, istiqlol sharoitida ham o'qishli, targ'ibga loyiq asardir. Unda olg'a surilgan ma'naviy-axloqiy muammolar hamon dolzarb bo'lib qolayotir.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Pirimqul Qodirov. Erk.Meros.Qadrim. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975.
2. Normatov U. Yetuklik. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982.- B.317.
3. Filosofiya lug‘ati. -Toshkent: «O‘zbekiston», 1976.- B. 621.
4. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2004 yil, 26 mart.
5. Ibragimov X. THE PEOPLE IN THE POETIC RISE OF TORA SOLOMON'S WORK THE PLACE OF PROVERBS //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
6. Ibragimov, X. (2022). Dars mashgulotlarining samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: Yechimlar va istiqbollar, 1(1), 551–554. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5258>
7. Hamdamovich I. K. TURA SULAYMON'S SKILLS OF USING ANTONYMS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758). – 2022. – Т. 3. – №. 03. – С. 71-75.
8. Ibragimov X. Tura Sulaymon ijodining poetik yuksalishi //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
9. Ibragimov, Hayrulla. (2021). ТЎРА СУЛАЙМОН ШЕЪРИЯТИДА МЕТАФОРАНИНГ ЎРНИ . FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 4(4). извлечено от <https://hp.jdpu.uz/index.php/hp/article/view/2022>